



# SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## SIRDARYO VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI




**2025- YIL YANVAR  
DASTLABKI MA'LUMOT**

Norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natjalarini qo'shgan holda

## Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari


### Qurilish korxonalari soni, birlikda



### Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2025-yil 1-fevral holatiga, birlikda












2025-yil 1-fevral holatiga Sirdaryo viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 740 tani tashkil etdi.



## Sirdaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 282 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 38,1 % Guliston shahrida joylashgan.

### Qurilish korxonalari soni 2025-yil 1-fevral holatiga, birlikda


<b>Guliston shahri</b>	<b>282</b>	
<b>Mirzaobod tumani</b>	<b>63</b>	
<b>Yangiyer shahri</b>	<b>63</b>	
<b>Sirdaryo tumani</b>	<b>62</b>	
<b>Guliston tumani</b>	<b>49</b>	
<b>Boyovut tumani</b>	<b>44</b>	
<b>Sayxunobod tumani</b>	<b>41</b>	
<b>Oqoltin tumani</b>	<b>37</b>	
<b>Shirin shahri</b>	<b>33</b>	
<b>Xovos tumani</b>	<b>33</b>	
<b>Sardoba tumani</b>	<b>33</b>	

Shuningdek, Guliston shahrida 282 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 38,1 %), Mirzaobod tumani va Yangiyer shahrida 63 tadan (8,5 %) qurilish korxonalari mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

## Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2025-yilning yanvar oyida, Sirdaryo viloyatida jami 282,5 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 70,9 % ni tashkil etdi.

### Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va oʻsish surʼati




*Maʼlumot uchun:* qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

## Sirdaryo viloyatida qurilish ishlari

2025- yilning yanvar oyida hududlar kesimida, xususan, Guliston shahri (81,2 mlrd so‘m), Mirzaobod tumani (32,8 mlrd so‘m) va Sirdaryo tumanida (29,8 mlrd so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

### Hududlar kesimida qurilish ishlari

yanvar oyida



\* Viloyat umumiy ko‘rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.




## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025- yilning yanvar oyida Sirdaryo viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 73,8% ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 20,0% ulushni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 27,4 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 6,2% ulushni va 2024- yilning mos davriga nisbatan 169,6 % ni tashkil etdi.


### Qurilish ishlari hajmining o'sish sur'ati

yanvar oyida, % da



### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari ulushi

yanvar oyida



**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 73,8% yoki 208,4 mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



**4,7 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **9,8** mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **4,7 %** ni tashkil etdi.



**67,3 %**


Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **140,2** mlrd so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **67,3 %** ni tashkil etdi.



**28,0 %**


Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **58,4** mlrd so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **28,0 %** ni tashkil etdi.

**Yangi qurilish ishlari hajmining bajarilgan qurilish ishlaridagi ulushi**  
*yanvar oyida, % da*



## Hududlar kesimida yangi qurilish ishlari hajmi

yanvar oyida, mlrd soʻmda



\* Viloyat umumiy koʻrsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

2025- yilning yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari boʻyicha yuqori hajm Guliston shahri (61,3 mlrd soʻm), Mirzaobod tumani (19,4 mlrd soʻm), Sirdaryo tumani (16,3 mlrd soʻm) va Yangiyer shahrida (7,3 mlrd soʻm) qayd etildi.



## Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari


Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1-yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulot (mahsulot, ish, xizmat)lar statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "**Qurilish faoliyati bo'yicha o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,3% ni tashkil etib, 2024- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,3% punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, ulush 2024- yilning mos davriga nisbatan 6,7% punktga ko'payib 63,9% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2024- yilning mos davriga nisbatan 3,4% punktga kamayib, 33,8% ni tashkil etdi.

### Bino va inshootlar qurilishining jami hajmi – 208,6 mlrd so'm




2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari (% da)

## Bino va inshootlar qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Guliston tumani (78,8%), Yangiyer shahri (77,4%) va Boyovut tumanida (76,2%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishi hajmi

*yanvar oyida, mlrd so'mda*




\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

## Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

**Fuqarolik obyektlari qurilishiga** avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 6,6 % ni tashkil etdi va 2024- yilning mos davriga nisbatan 55,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2024- yilning mos davriga nisbatan 55,7 % punktga ko'payib 93,4 % ni tashkil etdi.

### Korxonalar turlari kesimida fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmlari va ulushi *yanvar oyida*




2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'atlari (% da)

## Fuqarolik obyektlari qurilishining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Oqoltin tumani (32,8%), Sirdaryo tumani (31,2%) va Xovos tumani (24,8%)da kuzatildi.

### Hududlar kesimida fuqarolik obyektlarini qurish hajmi

yanvar oyida, mlrd so'mda



\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,0 % punktga kamaydi va 6,8 % ni tashkil etdi.


Qolgan 93,2 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,0 % punktga ko'paydi .

## Korxonalar turlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

yanvar oyida



## Jamiga nisbatan ulushi




## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Sardoba tumanida (15,7%), Oqoltin tumanida (12,1%) va Sayxunobod tumanida (11,5%) kuzatildi.

### Hududlar kesimida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi

yanvar oyida, mlrd so'mda



\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi


yanvar oyida, mlrd soʻmda



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

## Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari boʻyicha taqsimoti va oʻsish surʼati


yanvar oyida



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2024-yil mos davriga nisbatan


**106,7 %**



Norasmiy sektor

2024-yil mos davriga nisbatan

**102,0 %**



Yirik qurilish tashkilotlari

2024-yil mos davriga nisbatan


**7,0 %**

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari**

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 9,8 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 7,0% ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 31,7% ga kamayib, 3,5% ni tashkil etdi.

**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi**

*yanvar oyida*



**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**

*yanvar oyida*




**Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari**

*Ma'lumot uchun:* yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Shirin shahrida (9,8%), Mirzaobod tumanida (4,3%) va Boyovut tumanida (3,6%) qayd etildi.

**Hududlar kesimida yirik qurilish tashkilotlari  
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**

*yanvar oyida, mlrd so'mda*




\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari**

2025- yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 71,6 % to'g'ri kelib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 23,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024- yilning mos davriga nisbatan 106,7 % ni tashkil etgan holda 202,2 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar, tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi**

*yanvar oyida*



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati**

*yanvar oyida*




**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari**

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Guliston shahri (93,5%), Mirzaobod tumani (87,8%) va Yangiyer shahriga (87,0%) to'g'ri keldi.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududlar kesimida hajmi**

*yanvar oyida, mlrd so'm*




\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

**Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish  
ishlarining asosiy ko'rsatkichlari**

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 24,9% yoki 70,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 102,0% tashkil etdi. Shundan 56,3 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 100,5%, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 2,2 mlrd so'mni va 143,0%, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 12,0 mlrd so'mni va 103,9% tashkil etdi.

**Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish  
ishlari hajmining jamiga nisbatan ulushi**

*yanvar oyida*



**Norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari  
hajmi va o'sish sur'ati**

*yanvar oyida*






## Norasmiy sektorda bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

*Ma'lumot uchun:* ko'rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Sirdaryo tumanida (9,1 mlrd so'm), Guliston shahrida (5,0 mlrd so'm) va Xovos tumanida (3,2 mlrd so'm) qayd etildi.

### Hududlar kesimida norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi

*yanvar oyida, mlrd so'mda*




\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

**Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan  
qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari**

**Ma'lumot uchun:** davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Oqoltin tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 5,2%), Sayxunobod tumanida (ushbu hududdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 3,3%) va Sardoba tumanida (ushbu hududdagi umumiy qurilish ishlarining 2,0%) qayd etildi.


**Hududlar kesimida davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**  
*yanvar oyida, mlrd so'mda*

**Davlat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**  
*yanvar oyida, mlrd so'mda*



## Hududlar kesimida nodavlat tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**Ma'lumot uchun:** nodavlat mulkchilik shaklidagi tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining hududda bajarilgan jami qurilish ishlaridagi eng yuqori ulushi Guliston shahrida (100,0%), Shirin shahrida (100,0%) va Yangiyer shahrida (100,0%) qayd etildi.



\* Viloyat umumiy ko'rsatkichida hududlarga taqsimlanmagan hajmni hisobga olgan holda.

## Qurilish ishlari Uslubiy tushuntirishlar

**Qurilish ishlari** – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

**Kapital qurilishga pudrat shartnomasi** – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

**Qurilish tashkilotlari** – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**  
**Tel. 67 236-70-00 (2020)**